

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Jahongirov Burxon</i> O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI	13-18
<i>Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li</i> AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI	19-23
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI	24-28
<i>Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich</i> FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA DOIR QARASHLAR TAHLILI	29-34
<i>Лукашова Наталья Михайловна</i> ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА, ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ	35-40
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> 1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI: TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR	41-44
<i>Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich</i> ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI	45-52
<i>Tursunov Farrux G'ulomovich</i> QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI O'ZGARISHLAR	53-58
<i>Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna</i> XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	59-63
<i>Муминов Азизбек</i> ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ, ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА	64-69
<i>Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li</i> YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY RAMZ SIFATIDA	70-74
<i>Tuyev Fazliddin Erkinovich</i> BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY ALOQALARI	75-80
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli</i> QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT TARMOQLARINING IJTIMOIIY-IQTISODIY ROLI: TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR	81-85

<i>Jumayeva Shohida Choriyevna</i> SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLAR	86-90
<i>Azatov Allayar</i> RIVOJLANGAN O'RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA "XORAZM DENGIZI" TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLAR	91-99
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILARDA O'ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI	100-105
<i>Orunbayev Asli</i> IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G'OYALARINING SHAKLLANISHI	106-113
<i>Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich</i> XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O'RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR	114-116

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abduljalilov Xojiakbar Abduljalil o'g'li</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	117-122
<i>Bazarova Gulnora Gulamovna</i> O'ZBEKISTON IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO'LIDAGI RIVOJLANISH).....	123-127
<i>Yadiyarova Shahnoza</i> THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES	128-135
<i>Нурмуродов Камолитдин Пирмаматович</i> НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ	136-141
<i>Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna</i> O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI	142-146
<i>Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi</i> TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO'STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH	147-150
<i>Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi</i> THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM	151-154

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE	155-158
<i>Adilov Zafar Yunusovich</i> MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI	159-165

<i>Xo'janova Tamara Jo'raevna</i> YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI	166-170
<i>Narziyev Zubaydillo Ibodilloevich</i> AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA	171-175
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	176-179
<i>Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich</i> UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI	180-185
<i>Shamsutdinova Nigina Karimovna</i> ABU ALI IBN SINO IRFONiy QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA	186-190
<i>Pardayeva Marhabo Davlatovna</i> "ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI	191-197
<i>Aripova Zulfiyaxon Solijonovna</i> SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA	198-203
<i>Muxtorova Tutixon</i> ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI	204-211
<i>Xakimov Abdulboqi</i> YOSHLARDA MANTIQUIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI	212-216
<i>Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich</i> ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI	217-224
<i>Taniqulov Jonibek Ashirkulovich</i> TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL	225-229
<i>Бердалиева Севара Дамировна</i> СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ	230-234
<i>Хушбоков Ойбек Уралович</i> СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ	235-239
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i> VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	240-244
<i>Muxiddinova Hakimaxon G'ulomovna</i> EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA	245-250

<i>Zokirov Mirzo</i> MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR	251-255
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Jo'rayev Nabi Narziyevich</i> O'ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI	256-262
<i>Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH	263-267
<i>Zaripova Matluba Kulfidinovna</i> GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN	268-271
<i>Sayipova Dilobar Raximovna</i> ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI	272-275
<i>Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi</i> TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES	276-281
<i>Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi</i> TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATION OF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES	282-288
<i>Abdujalilova Ruxshona Abdug'afforzoda</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARINING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI	289-293
<i>Abduraximova Feruza Boxadirovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO'SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI	294-300
<i>Jalolova Feruza Normurodovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI	301-305
<i>Ahrorova Nigina Anvarovna</i> MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI	306-309
<i>Razikov Baxtiyor Kosimovich</i> MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O'ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA	310-314
<i>Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi</i> GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES	315-319
<i>Nazarova Sabrina Zafarjon qizi</i> YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI	320-323
<i>Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы</i> ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ»	324-326

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi</i> HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI	327-333
<i>Abdullayev Rustam Kaxramanovich</i> JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI	334-339
<i>Давронов Атобек Равшанович</i> ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ	340-349
<i>Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi</i> O'ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV	350-355
<i>Исламов Самандар Олимжон угли</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ	356-363
<i>Uteniyazov Keulimjay Kuanyshbayevich</i> AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O'RNI	364-370
<i>Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich</i> ASSOZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR	371-375
<i>Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev</i> ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	376-380
<i>Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна</i> ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА	381-388
<i>Axmedov Dilshod Baxramovich</i> MA'MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA'MINLASHNING AMALIY MASALALARI	389-394
<i>Shodmonov Farrux Fayzullo o'g'li</i> DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	395-401
<i>Bozorov Ulug'bek</i> TEXNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODEL I	402-407
<i>Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna</i> O'ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGI	408-413
<i>Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna</i> TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI	414-420

<i>Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o'g'li</i> MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO'ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O'TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI	421-428
<i>Salomov Xumoyun</i> OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI	429-433
<i>Kakhramonova Aziza</i> THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE	434-437
<i>Xoliqova Gavhar Ramazon qizi</i> XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI	438-444
<i>Sharipov Firdavs Xolnazarovich</i> OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI	445-450
<i>Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna</i> PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE	451-456
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	457-462
<i>Nabiullin Rishat Xismatullovi, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich</i> XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH	463-468
<i>Xudayberganov Otabek Erkinovich</i> BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O'QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	469-474
<i>Nishonova Dilafruz</i> O'QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	475-480
<i>Davletyarova Laylo Baxodirovna</i> YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI	481-486
<i>Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich</i> O'RTA MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA ZO'RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	487-493
<i>Шавилова Наталья Сергеевна</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ	494-500
<i>Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi</i> FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	501-508

<i>Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna</i> ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	509-515
<i>Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi</i> RAQAMLI MUHITDA O'SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI	516-519
<i>Usmonqulov Jo'rabek Erkin o'g'li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi</i> TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING O'RNI VA AHAMIYATI	520-525
<i>Xayitova Dilovar Ismat qizi</i> STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'LLARI	526-532
<i>Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna</i> THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS	533-537

Received: 15 September 2025

Accepted: 1 October 2025

Published: 10 October 2025

Article / Original Paper

PROBLEMS AND PROSPECTS OF LEGAL SUPPORT OF CONSUMER RIGHTS IN TOURISM SERVICES

Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna

Karakalpak State University

Doctoral student of the Department of "Civil and Business Law"

Abstract. This article analyzes the current problems related to the legal protection of consumer rights in the tourism services sector of the Republic of Uzbekistan and the prospects for their elimination. The study examines the complex structure of tourism services, the features of legal relations between service providers and consumers, the existing regulatory framework and its effectiveness in practice. Attention is also paid to the issues of electronic contracts, online booking, mechanisms for compensation and consideration of complaints, as well as the legal literacy of citizens. The article puts forward proposals for the formation of a fair and transparent legal environment in the tourism services market in Uzbekistan through practical measures proposed on the basis of international experience.

Keywords: consumer rights, tourism services, legal protection, contractual relations, digital tourism, regulatory framework, compensation mechanisms, international experience, tourism sector.

TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA'MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna

Qoraqalpoq davlat universiteti

«Fuqarolik va tadbirkorlik huquqi» kafedrası doktoranti

Email: guldaulet62@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida turizm xizmati sohasida iste'molchilar huquqlarini huquqiy himoya qilish bilan bog'liq dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqotda turizm xizmatlarining murakkab tuzilmasi, xizmat ko'rsatuvchi subyektlar va iste'molchilar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning xususiyatlari, mavjud normativ-huquqiy baza va uning amaliyotdagi samaradorligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, elektron shartnomalar, onlayn bron qilish, zarar qoplash va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlari hamda fuqarolarning huquqiy savodxonligi masalalariga e'tibor qaratilgan. Maqolada xalqaro tajriba asosida taklif etilgan amaliy choralar orqali O'zbekistonda turizm xizmatlari bozorida adolatli va shaffof huquqiy muhitni shakllantirish bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: iste'molchi huquqlari, turizm xizmatlari, huquqiy himoya, shartnoma munosabatlari, raqamli turizm, normativ-huquqiy baza, zarar qoplash mexanizmlari, xalqaro tajriba, turizm sohasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N71>

Kirish. Zamonaviy turizm sohasining rivojlanishi aholining turmush darajasi va sifatining oshishi, xalqaro aloqalarning kengayishi, transport va mehmonxona infratuzilmasining takomillashuvi, shuningdek, raqamli texnologiyalarning turizm sohasiga jadal joriy etilishi bilan chambarchas bog'liq. Ushbu omillar turistik oqimlarning nafaqat miqdor jihatdan o'sishiga, balki turizm bozori tuzilmasining murakkablashuviga, yangi xizmat turlari va xizmat ko'rsatish shakllarining paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Biroq, ijobiy tendensiyalarga qaramay, iste'molchi huquqlarining buzilishi holatlari ham ortib bormoqda. Ko'plab holatlarda turistlarga xavfsizlik talablariga javob bermaydigan, e'lon qilingan shartlarga yoki sifat standartlariga mos kelmaydigan xizmatlar taqdim etilmoqda. Shartnoma shartlarining shaffof bo'lmasligi, xizmat haqida ishonchli ma'lumotning yo'qligi, va'da qilingan xizmatlar bajarilmaganda zararni qoplashdagi muammolar bularning barchasi iste'molchilar manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu sababli, turizm xizmatlar ko'rsatish sohasida huquqiy tartibga solish, iste'molchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur sohada samarali huquqiy ta'minot mavjud bo'lishi turizmning barqaror rivojlanishi, fuqarolarning soha ishtirokchilariga bo'lgan ishonchini oshirish va turizm bozorini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi [4].

Turistik xizmatlar o'z mohiyatiga ko'ra murakkab va ko'p tarkibli faoliyat turi bo'lib, ular xar-xil xizmat turlarini o'z ichiga oladi. Ular qatoriga tur paketlarini bron qilish, mehmonxonada joy band qilish va yashash, transport xizmatlari, ovqatlanish, ekskursiyalar tashkil etish, sayohat sug'urtasi hamda boshqa qo'shimcha xizmatlar kiradi. Ushbu har bir komponent yagona turistik mahsulotning ajralmas qismi hisoblanadi va ular huquqiy jihatdan aniq hamda tizimli tartibga solinishi talab etiladi [6; 128-130bb].

Ushbu sohada iste'molchilarning huquqlari quyidagi holatlarda buzilishi mumkin: taqdim etilgan xizmatlarning e'lon qilingan shartlar va sifat me'yorlariga mos kelmasligi, tur mahsuloti haqida noto'g'ri yoki yetarli bo'lmagan axborot berilishi, adolatsiz reklama vositalaridan foydalanish, majburiy xizmatlarni qo'shimcha tarzda yuklash, hamda shartnoma bekor qilingan taqdirda to'lovlarni qaytarib bermaslik [5; 59-60bb]. Shuningdek, xizmatlarni belgilangan muddatda ko'rsatmaslik, marshrutlarni mijoz bilan kelishmagan holda o'zgartirish kabi holatlar ham tez-tez uchraydi, bu esa turistlarning qonuniy manfaatlariga ziyon yetkazadi.

Bunday holatlar turizm xizmatlar sohasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini doimiy takomillashtirish, shartnomalar shartlarini shaffof qilish va turizm subyektlarining (turoperatorlar, agentlar) javobgarligini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot usullari. Mazkur ilmiy maqolada turizm xizmatlar sohasida iste'molchi huquqlarini huquqiy ta'minlash masalalari chuqur o'rganildi. Tadqiqot davomida mavzuning murakkab va ko'p qirrali xususiyatlarini to'laqonli yoritish maqsadida bir nechta o'zaro uyg'unlashgan ilmiy-tahliliy yondashuvlar va metodlardan foydalanildi.

Eng avvalo, amaldagi normativ-huquqiy baza chuqur o'rganildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi qonun, «Turizm to'g'risida»gi qonun, shuningdek, turizm faoliyatini tartibga soluvchi hukumat qarorlari, normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Har bir hujjatning iste'molchilar huquqlarini ta'minlashdagi amaliy o'rni, vazifasi va huquqiy mexanizmlari aniqlashtirildi.

Tadqiqotda xorijiy davlatlarning, jumladan, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Fransiya, Turkiya va boshqa turizm rivojlangan mamlakatlarning qonunchiligi bilan O'zbekiston tajribasi solishtirildi. Bu usul orqali boshqa yurisdiksiyalardagi samarali huquqiy mexanizmlarni aniqlash va ularni milliy qonunchilikka moslashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi.

Turizm xizmatlari bozori murakkab va ko'p bosqichli tizimdan iborat bo'lib, unda turoperatorlar, sayyohlik agentliklari, mehmonxona va transport xizmatlarini ko'rsatuvchilar,

sug'urta kompaniyalari va to'g'ridan-to'g'ri iste'molchilar ishtirok etadi [7; 121-122bb]. Sistemali yondashuv yordamida bu subyektlar o'rtasidagi o'zaro huquqiy munosabatlar, ularning huquq va majburiyatlari tizimli tarzda o'rganildi. Bu esa sohadagi muvozanatsizliklar va huquqiy bo'shliqlarni aniqlash imkonini berdi.

Normativ-huquqiy tahlil orqali turizm xizmatlarini tartibga soluvchi qonun va qonunosti hujjatlarning o'zaro bog'liqligi, mavjud ziddiyatlar, kamchiliklar va takomillashtirish zaruriyati aniqlandi. Amaliyotda qo'llanilayotgan huquqiy mexanizmlarning samaradorligi baholandi.

Maqolada statistik ma'lumotlar, sud amaliyoti, ommaviy axborot vositalarida yoritilgan konkret holatlar, iste'molchilar va turizm sohasi mutaxassislari fikrlari asosida amaliy muammolar tahlil qilindi. Bunda ayniqsa, iste'molchilar duch kelayotgan asosiy muammolar xizmat sifatsizligi, noto'g'ri reklama, shartnoma shartlarining buzilishi, kompensatsiya olishdagi qiyinchiliklar amaliy dalillar bilan asoslab berildi.

Iste'molchi huquqlarining turizm sohasida huquqiy himoya qilinishi qanday bosqichlardan o'tganligi, qonunchilikdagi o'zgarishlar, global tendensiyalar va xalqaro konvensiyalar asosida rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi. Bu esa milliy qonunchilikni xalqaro huquqiy normalar bilan uyg'unlashtirishning dolzarbligini ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida aniqlangan muammolarga nisbatan asosli, huquqiy jihatdan dalillangan tavsiyalar ishlab chiqildi. Har bir taklif amaldagi huquqiy tizimni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, uning amalga oshirish imkoniyatlari ham yoritib berildi.

Yuqoridagi usullar majmuasi tadqiqot natijalarining ishonchliligini, ilmiy asoslanganligini va amaliy qiymatini ta'minladi. Mazkur metodologik yondashuv turistik xizmatlarda iste'molchi huquqlarini huquqiy ta'minlash muammolarini har tomonlama o'rganish, tahlil qilish va real yechimlar ishlab chiqishga imkon yaratdi.

Natijalar. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida turizm xizmatlari sohasida iste'molchilarning huquqlarini huquqiy himoya qilish borasida mavjud holat quyidagi muhim natijalarni yuzaga chiqardi:

O'zbekiston Respublikasida iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishga oid asosiy qonuniy asoslar mavjud bo'lib, ular Fuqarolik kodeksi, «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida»gi va «Turizm to'g'risida»gi qonunlar bilan tartibga solinadi. Biroq, ushbu qonunlar va ularga asoslangan normativ-huquqiy hujjatlar zamonaviy turizm xizmatlari turlari, raqamli texnologiyalar, onlayn xizmatlar va xalqaro hamkorlikni to'liq qamrab ololmayapti. Xususan, xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning aniq mas'uliyat chegaralari, onlayn bronlash platformalarining huquqiy maqomi va xalqaro turistik shartnomalar bilan bog'liq nizolarni hal etish mexanizmlari hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Turizm xizmatlar bir nechta turli subyektlar tomonidan bosqichma-bosqich ko'rsatiladi: turoperatorlar, sayyohlik agentliklari, transport kompaniyalari, mehmonxonalar, ekskursiya xizmatlari va boshqalar. Bunday ko'p bosqichli tuzilma huquqiy munosabatlar tizimini murakkablashtirib, har bir bosqichda javobgarlikni aniqlashni qiyinlashtiradi. Ayniqsa, xizmat sifatsiz ko'rsatilganda yoki shartnoma shartlari buzilganda, iste'molchi kimga da'vo qilishni bilmay qolishi holatlari keng uchraydi. Bu esa amaliyotda huquqiy himoyaning sust bo'lishiga olib kelmoqda.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayniqsa ichki turizm segmentida faol bo'lgan aholining katta qismi o'z huquqlarini yetarlicha bilmaydi. Turistik shartnomalarni imzolashda xizmat shartlariga e'tibor bermaslik, og'zaki kelishuvlarga asoslanish, xizmatning sifatsiz

bo'lishiga qaramay norozilik bildirmaslik holatlari keng tarqalgan. Bundan tashqari, zarar qoplash va kompensatsiya olishning qonuniy mexanizmlari to'g'risida xabardorlik darajasi past bo'lib, bu esa fuqarolarning o'z manfaatlarini himoya qilishga bo'lgan ishonchini pasaytiradi.

Turistik xizmatlar bilan bog'liq huquqbuzarlik holatlari ko'plab iste'molchilarning noroziligiga sabab bo'layotgan bo'lsa-da, bu kabi holatlar kamdan-kam hollarda sudgacha yetib boradi [6; 251-252bb]. Ko'pchilik iste'molchilar huquqiy jarayonlarga aralashishni murakkab va qimmat deb hisoblab, o'z haqlarini talab qilmaydi. Bundan tashqari, mavjud sud amaliyotida turizmga oid shikoyatlarning nisbatan kamligi va bir xil masalalarda turlicha qarorlar qabul qilinayotgani ham huquqiy barqarorlikka putur yetkazmoqda.

Zamonaviy turizmga xizmatlar tobora ko'proq raqamli platformalar veb-saytlar, mobil ilovalar, onlayn bronlash tizimlari orqali ko'rsatilmoqda. Biroq ushbu raqamli muhitda iste'molchi huquqlarining huquqiy jihatdan himoyalaniishi sust rivojlangan. Xususan, onlayn platformalarda shartnomalarning to'liq ochiq ko'rsatilmaligi, elektron shartnomalarning yuridik kuchi bo'yicha aniqlikning yetishmasligi, ma'lumotlarning yashirin reklama shaklida berilishi kabi holatlar huquqiy noaniqliklarni kuchaytirmoqda. Bu esa iste'molchilarni zamonaviy tahdidlar oldida zaif holatda qoldirmoqda.

Muhokama. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining jadal rivojlanib borayotganligi, ayniqsa ichki va kirish turizmi hajmining oshishi, xizmatlar bozorida ko'plab yangi ishtirokchilarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, iste'molchilar huquqlarining buzilishi holatlari ham ortib borayotgani kuzatilmoqda. Xizmat sifati, shartnoma shartlariga rioya qilinmasligi, noto'g'ri yoki chalg'ituvchi axborot berilishi kabi muammolar ushbu sohaga oid huquqiy tartibga solish mexanizmlarini tubdan takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Mazkur tadqiqotda aniqlangan muammolar asosida ishlab chiqilgan quyidagi amaliy takliflar nafaqat mavjud qonunchilikni takomillashtirish, balki turistik xizmatlar bozorida ishonchli, shaffof va adolatli huquqiy muhitni yaratishga xizmat qiladi:

1. Maxsus normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish zaruriyati.

Hozirgi paytda mavjud qonunlar, jumladan «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida» va «Turizm to'g'risida»gi qonunlar umumiy normalarni o'z ichiga olsa-da, aynan turizm xizmatlariga xos bo'lgan o'ziga xosliklarni qamrab olmaydi. Shu sababli, ushbu sohada maxsus qonun yoki qonunosti hujjat ishlab chiqish zarur.

Mazkur hujjatda: xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning aniq huquq va majburiyatlari; elektron shartnomalarning huquqiy maqomi; xizmatdan voz kechish holatlarida kompensatsiya mexanizmlari; zarar qoplash tartibi va muddatlari; iste'molchiga to'liq, shaffof va ishonchli axborot taqdim etish majburiyati kabi masalalar batafsil tartibga solinishi lozim.

Bunday yondashuv sohadagi huquqiy noaniqliklarni bartaraf etadi va fuqarolarni ishonch bilan turistik xizmatlardan foydalanishga undaydi.

2. Iste'molchilarning huquqiy savodxonligini oshirish masalasi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, turistik xizmatlar iste'molchilarning katta qismi o'z huquq va majburiyatlaridan bexabardir. Ayniqsa, shartnoma tuzish jarayonida huquqiy masalalarga e'tibor berilmasligi, zarar yetkazilganda huquqiy himoya mexanizmlaridan foydalanmaslik holatlari keng tarqalgan.

Bu borada: maxsus o'quv dasturlar, broshyura va vizual kontent (videodarsliklar, infografikalar) ishlab chiqilishi; umumiy ta'lim tizimiga «Iste'molchi huquqlari asoslari» fani

kiritilishi, ijtimoiy tarmoqlar va turizm sohasiga oid rasmiy portallar orqali doimiy axborot-targ'ibot kompaniyalari olib borilishi zarur.

Mazkur chora-tadbirlar fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltiradi va ular tomonidan o'z huquqlarini faol himoya qilish imkonini yaratadi.

3. Raqamli muhitda iste'molchi huquqlarini himoya qilish.

Turistik xizmatlar ko'rsatuvchilarning tobora raqamli muhitga o'tishi, ya'ni onlayn bron qilish, to'lov, elektron chiptalar va virtual ekskursiyalar kabi xizmatlar kengayib borayotgani, yangi turdagi huquqiy xavflarni yuzaga keltirmoqda. Ammo amaldagi qonunchilik bu yo'nalishda hali yetarli darajada himoya choralari belgilamayapti.

Bu bo'yicha: onlayn xizmat ko'rsatish platformalari faoliyatini tartibga soluvchi alohida normalar ishlab chiqilishi; elektron shartnomalarning huquqiy maqomi, axborot xavfsizligi, iste'molchiga ma'lumot berish standartlari aniqlashtirilishi; noto'g'ri yoki chalg'ituvchi axborot taqdim etgan xizmat ko'rsatuvchilarga nisbatan javobgarlik choralari kuchaytirish zarur.

Shu orqali raqamli xizmatlar iste'molchilari ham an'anaviy xizmatlar foydalanuvchilari kabi teng huquqlarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

4. Sudgacha nizolarni hal qilish tizimini rivojlantirish.

Turizm xizmatlariga oid nizolar, odatda, sudgacha yetib bormaydi. Bu esa iste'molchining huquqiy himoyasiz qolishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, sudgacha nizolarni hal qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish muhimdir.

Masalan: mediatsiya markazlari yoki sohaga ixtisoslashgan arbitraj organlarini tashkil etish; «Iste'molchi sudi» yoki «mobil arbitraj» tizimi orqali arzon, tez va qulay sharoitda huquqiy yordam ko'rsatish.

Bu yondashuv fuqarolarga murakkab huquqiy jarayonlarsiz o'z huquqlarini himoya qilish imkonini beradi va xizmat ko'rsatuvchilarda ham mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

5. Turistik xizmatlarning shaffofligini oshirish.

Sohadagi yana bir muhim masala – iste'molchilarga xizmat to'g'risida yetarli va ishonchli axborot taqdim etilmasligidir. Ko'plab holatlarda xizmat tavsifi reklama darajasida qolib ketmoqda, bu esa iste'molchining noto'g'ri qaror qabul qilishiga olib kelmoqda.

Shu bois: har bir turoperator xizmat paketlariga doir maxsus "axborot kartasi" (info-karta) taqdim etishi; bunda xizmat narxi, tavsifi, muddati, bekor qilish shartlari, javobgarlik choralari aniq yozilishi; xizmat sifati ustidan shikoyatlarni qabul qiluvchi yagona elektron platforma yaratish taklif etiladi.

Bunday yondashuv xizmat ko'rsatishda shaffoflikni oshiradi, iste'molchining ishonchini mustahkamlaydi.

6. Xalqaro standartlar va ilg'or tajribalarni joriy etish.

Dunyo tajribasida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida samarali mexanizmlar shakllangan. Xususan, BMTning Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar va qo'llanmalar bu borada muhim o'rin tutadi.

Shu nuqtai nazardan: xalqaro tavsiyalarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish; ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ulardan moslashtirilgan holda foydalanish; xalqaro huquqiy hujjatlar bilan uyg'un qonunchilik bazasini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Bu O'zbekistonning turizm sohasida xalqaro maydondagi obro'sini oshiradi va xorijiy turistlar uchun ham huquqiy kafolatlarni kuchaytiradi.

Muhokama qilingan takliflar mamlakatda turizm sohasini rivojlantirish, iste'molchilar huquqlarini samarali himoya qilish va bu yo'nalishda huquqiy islohotlarni chuqurlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali adolatli, shaffof va barqaror turizm xizmatlari bozori shakllantirilishi mumkin.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining izchil rivojlanishi va xizmatlar turlarining kengayib borishi bilan bir qatorda, iste'molchilarning huquqlarini samarali himoya qilish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Turistik xizmatlar o'zining murakkab, ko'p bosqichli va ko'p ishtirokchili tabiati bilan ajralib turadi. Bu esa ularni tartibga solishda yanada aniqroq, puxta o'ylangan huquqiy mexanizmlarga ehtiyoj tug'diradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, mavjud qonunchilikda iste'molchilar huquqlarini umumiy darajada himoya qiluvchi hujjatlar mavjud bo'lsa-da, aynan turizm sohasining o'ziga xos xususiyatlarini qamrab oluvchi maxsus normativ-huquqiy asoslar yetarli emas. Xususan, zamonaviy raqamli xizmatlar, onlayn bron qilish, elektron shartnomalar, xalqaro turistik paketlar bilan bog'liq huquqiy munosabatlar amaldagi qonun hujjatlarida to'liq aks ettirilmagan.

Shuningdek, iste'molchilarning huquqiy savodxonligi pastligi, huquqiy madaniyatning yetarli emasligi, sudgacha nizolarni hal qilish mexanizmlarining rivojlanmaganligi kabi omillar fuqarolarning o'z huquqlarini samarali himoya qilishiga to'siq bo'lmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin: turizm xizmatlari bozorida iste'molchilar huquqlarini himoya qilish milliy qonunchilik doirasida dolzarb masala bo'lib, uni yanada takomillashtirish zarur, soha uchun maxsus normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, elektron xizmatlarga oid huquqiy tartibni kuchaytirish va xalqaro standartlarni implementatsiya qilish muhim vazifalardandir, huquqiy savodxonlikni oshirish, mediatsiya va tezkor da'vo mexanizmlarini rivojlantirish orqali fuqarolarning huquqiy manfaatlarini real himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Shu bilan birga, davlat organlari, nodavlat tashkilotlar, turistik biznes subyektlari va fuqarolar o'rtasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash orqali turizm sohasida sog'lom va adolatli huquqiy muhitni shakllantirish mumkin bo'ladi. Bu esa nafaqat ichki turizmning, balki xalqaro sayyohlar ishonchini qozonish orqali mamlakatning global turizm bozori bilan integratsiyasini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 01.03.1997;
2. O'zbekiston Respublikasining «Turizm tog'risida»gi Qonuni, 18.07.2019 yildagi O'RQ-549-son;
3. O'zbekiston Respublikasi «Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish tog'risida»gi Qonuni, 26.04.1996 yildagi 221-I-son;
4. Achilova L.I. «Turistik faoliyatda mulk huquqi kafolatlarini takomillashtirishda Yangi O'zbekistonning konstitutsion islohotlari» // Jamiyat va innovatsiyalar Issue – 5No1(2024) / ISSN 2181-1415
5. Бугаенко Н.В. Кратенко М.В. «Судебная практика по гражданским делам. Споры о защите прав потребителей» научно-практическое пособие// «Юстицинформ» 2022г. 469 с.
6. «ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ЗАЩИТЫ ПРАВ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ В СФЕРЕ ТУРИСТИЧЕСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ» Григоренко Н.Ю. Вестник СНО выпуск 12 том:4 Юриспруденция часть-1 414 с.

7. N.M. Umurzakova, D.R.Rustamova, A.Muzaffarov. Turizmninghuquqiy asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021-130b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).